



O'ZBEK SHEVALARINING KASB-HUNAR DOIRASIDA QO'LLANILISHI VA ULARNING FONETIK XUSUSIYATLARI.

Muborak O'rozova O'rol qizi

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilining hududiy shevalari va ularning kasb-hunar faoliyati doirasida qo'llanilishiga e'tibor qaratilib, ularning xalq og'zaki nutqida saqlanib qolgan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan shevalar aynan ma'lum kasblar doirasida hanuzgacha alohida til tizimi sifatida shakllanganligi aniqlanadi. O'zbek milliy tilining saqlanib qolishi uchun ma'lum bir yechimlar taqdim etilgan va ularni tadqiq etish nechog'lik ahamiyatli ekani yoritilib beriladi. Shuningdek, keltirilgan misollar qipchoq lahjasida bo'lib, shu misollar orqali ushbu lahjaning fonetik xususiyatlari xarakteristikasi to'laligicha ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Sheva, dialektologiya, lahja, kasb-hunar leksikasi, fonetik xususiyatlar, fonema, til, mahalliy til, adabiy til.

Abstract: This article focuses on the regional dialects of the Uzbek language and their use within the framework of professional activities, and it is determined that those dialects that have been preserved in folk speech and passed down from generation to generation have still been formed as a separate language system within certain professions. Certain solutions are presented for the preservation of the Uzbek national language and the importance of their study is highlighted. Also, the examples given are in the Kipchak dialect, and through these examples the phonetic characteristics of this dialect are fully revealed.

Keywords: Dialect, dialectology, professional lexicon, phonetic features, phoneme, language, local language, literary language.



Аннотация: В данной статье рассматриваются региональные диалекты узбекского языка и их использование в профессиональной деятельности, а также определяется, что те диалекты, которые сохранились в народной речи и передавались из поколения в поколение, до сих пор сформировались как отдельная языковая система в рамках определенных профессий. Представлены некоторые решения по сохранению узбекского национального языка и подчеркнута важность их изучения. Также примеры приведены на кипчакском диалекте, и посредством этих примеров в полной мере раскрываются фонетические особенности этого диалекта.

Ключевые слова: Диалект, говор, профессиональная лексика, фонетические особенности, фонема, язык, местный язык, литературный язык

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki millatning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ijtimoiy ongining aksidir. Har bir til o'z ichida turli lahjalar va shevalarni mujassam etgani kabi o'zbek tili ham rang-barang shevalar boyligiga ega. Ushbu shevalar esa nafaqat muloqot vositasi sifatida, balki xalqning kundalik hayoti, kasb-hunari, yashash tarzi va madaniyatining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelmoqda. Sheva – aslida forscha so'z bo'lib, ovoz, til, so'zlashish, odat, yo'sin, ravish kabi ma'nolarni bildiradi. Shevalar o'zbek tilining o'ziga xos ba'zi bir fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lgan kichikroq bir qismi bo'lib, o'zlarining jug'rofiy o'rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi. Lahja aslida arabcha so'z bo'lib, ifoda, so'z, sheva, ovoz kabi ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi. O'zbek dialektologiyasida lahja shevalardagi asosiy xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisini bildiradi.¹ Kasb-hunar faoliyati davomida shakllangan mahalliy atamalar va maxsus so'zlashuv uslubi shular borasidagi lingvistik izlanishlarga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda, chunki har bir

¹ Fayziyeva Xadicha. O'zbek dialektologiyasi. Termiz. "Kitob nashr". 2024.20b.



hududda dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar va boshqa kasb egalari o'zlariga xos, ko'pincha faqat o'sha ijtimoiy guruh vakillariga tushunarli bo'lgan shevada so'zlashadilar. Ularning nutqida aks etgan so'zlar o'z navbatida dialektologiyaning qimmatli manbayi hisoblanadi.

XXI asrning 20-yillarida dialektologiyaga yangi yo'nalish – amaliy dialektologiya sohasi kirib kelishi bilan istalgan dialekt ijtimoiy aloqa vositasi sifatida uning ichki qonuniyatlaridan kelib chiqib tadqiq etilishi mumkinligi ta'kidlanadi. Dialektologiya grekcha “dialektos” so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rgatadi.² Shuningdek, amaliy dialektologiya bizga barcha sohada qo'llaniladigan so'zlarning xalq tilida qay holda ifodalanilishi mumkinligini tahlil qilishga keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ayniqsa, bu holat XI asrga tegishli bo'lgan “Qutadg'u bilig” asarida tilga olingan kasblarning o'rganilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Quyida kasb-hunar doirasidagi atamalarning qipchoq lahjasidan foydalanuvchilar tilidagi ifodasi keltiriladi:

Tikuvchilik kasbida andaza - āndazä, ip - žip, material - mätiräl, qaychi - qājči, tikuv mashinasi - tiküv māšinäsi, igna- ijnä, tugma - tūjmä, overlok – ävirläk holatida ishlatiladi. Masalan, Körpäni tigişdän āldin birinči mätiräldi ālip, četigä žijäk-māyz dejdi, māyzini qijadän kesip āladi, ilgäridä känäp šäji, bähär šäji, ātläsdän māyz qīyan.

Sartaroshlikda: lab bo'yog'i - gümnäškä, lālap, pämädä, soch - čäč, soch bo'yoq - kräskä, kosmetolog - käsmītālik, klient - klent, taroq - tāray, to'g'nog'ich – libidinkä. Masalan, Birinči növbattä klenttiñ köñlini ālišgä häräkät qilāmiz.

² B.To'ychiboyev va B.Hasanov. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 4b.



Novvoychilik: xamir - xāmir, nonpar - nāmpar, tandir - tāndir, novvoy - nānvāj, xamirturush - xāmirtūriš, elak – jelāk. Masalan, Häptäsīya jekī mähāl **tāndir** žoyīp, unya bulānīp nānlar žobāredī:q.

Shifokorlik:shifokor - dōxtir yo dōktr, shprits - šprs, termometr - termāmitr, rentgenolog - renginālik, farmatsevt - fārmāseft yo āptekāči. Misol: Ej bālam, kāsālin āvj āpketmāstān dōxtirya bārip kōrinyanīn jāxšidā.

Zargarlikda: kumush – kūmiš, uzuk – ūzik yo žūzik, brilliant - briljānt, sirg’a - isirya, taqinchoq - sepičkā, marvarid - mārvarit. Namuna: Bōjnigināndān sepičkālāriḡ tūšib qālsindā.

Quruvchilik: g’isht – ḡišt, suvoq – sūvāq, shift – šip, ustun – ūstin, armatura – ārmātūr, arxitektor – ārxitektr, alebastr – ālbāstr, ostona – bōsāya. Misol: Ārxitektrlārimiz kōpājsin, bāri āqīl bōlsin, tāmlārimiz mūstākkām bōlsin.

Dehqonchilikda: yer - žer, urug’ - ūriḡ, o’roq - ōrāq, daraxt -dārāx , traktor - trāktir, g’alla - ḡālla, dehqon - deqqān, ketmon - kātman, agat - egāt, ariq - āriq, arpa - ārpa. Masalan, bizdi jāzga šu trāktirdi organip-organip **tramaga** eksassaga otib išladim-da, soḡin bahārga kelip ōzim **traktrist** bōlib, ōzim išlab ketdim, sōḡin ellik toqqizinči jili māḡ ājini toqqizinči čislāsiga berga kellik xojaliḡ bāšliḡi bop kirdim.

Oshpazlik: sous – sāvūs, duxovka – dūxāpkā, blender – blindr, muzlatkich – mūzlātgič, pichoq – pičāḡ, taom – tā:m.Misol: qizgināmā bir sen dūxāpkādā nārsā piširmā ekāneee hām mā žāqni kūjdirip kūl qīlsāḡ kerāk.

Yuqoridagi misollardan anglaymizki, qipchoq shevasida shunday fonetik hodisalar yuz berar ekan:

1.A fonemasining e ga o’tishi: **agat** > **egāt**;

2.E fonemasining i ga o’tishi: kosmet**o**log > kāsmitālik, over**o**lok >āv**i**rlāk, bl**e**nder > bl**i**ndr, mater**e**rial > māt**i**rāl;



3. "O"lashish: andaza > āndazā, qaychi > qājči, tikuv mashinasi > tiküv māšināsi, xamir > xāmīr, tandır > tāndir, taroq > tāray, xamirturush > xāmirtürīš, g'alla > γālla, ariq > ārīq, arpa > ārpa;
- 4."A"lashish: overlok > āvirlāk, kosmetolog > kāsmitālik, taroq > tāray, termometr > termāmitr, suvoq > süvāq, o'roq > örāq, ketmon > kätmän, duxovka > düxāpkā;
- 5.E fonemasining a ga o'tishi: ketmon > kätmän;
- 6.U fonemasining i ga o'tishi: , xamirturush > xāmirtürīš, kumush > kümiš, uzuk > üzik, ustun > üstin, urug' > üriγ;
- 7.Q fonemasining g' ga o'tishi: taroq > tāray, pichoq > pičāγ;
- 8.V fonemasining p va f ga o'tishi: duxovka > düxāpkā, farmatsevt > fārmāseft;
- 9.G fonemasining y ga o'tishi: igna > ijnā, tugma > tūjmā;
- 10.Reduksiya hodisasi kuzatilgan(so'z oxirida kelgan qator undoshning biri talaffuz qilinmasligi): g'isht > γiš, shift > šip, daraxt > dārāx;
- 11.S fonemasining ch ga o'tishi: soch > čāč;
- 12.H fonemasining qattiqlashishi va buning ta'sirida q ga o'tishi: dehqon > deqqān.

Ba'zi hollarda o'zbek tilidagi so'zlar har bir sohada, kasb-hunar egasida turlicha ma'noda qo'llanilishi mumkin. Masalan, operatsiya so'zi pochta, telegraf xodimlarida xat-xabarlarni va umuman aloqa ishini tezlatib oluvchi va boshqaruvchi ma'nosida, harbiy xodimlarda bir joyni yoki chegarani qurol kuchi bilan bosib olish yoki ishg'ol qilish ma'nosida, jamoat tartibi va davlat xavfsizligi xodimlarida esa ushbu sohaga tegishli ma'lum bir ishni tezlik bilan hal qiluvchi kishi va guruh ma'nosida qo'llaniladi. Tibbiyot xodimlari operatsiya so'zidan biror jarohatni yoki ichki kasallikni jarrohlik asbobi yordami bilan yorib, ulardan kasallik illatini chiqarib tashlash va kishi tanasini sog'aytirish ma'nolarini tushunadilar.³

Kasb-hunar terminlarining yasashida affiksatsiya faol usuldir. Umum o'zbek tili doirasida mavjud bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalarning aksariyati

³ Nazar Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Toshkent. "O'qituvchi" 1996.



terminlarning yasalishiga ham munosib hissa qo'shadi. Bular quyidagilar: - či, -gär, -
käš, - kār, -tārāš, - pāz, -bāf, -mänd, -bāz, -pürüş.

- či: nājči, tejirmānči, sūrnājči

- kār: sājipkār

-gär: sāvdagär

-käš: pilläkäš

-tārāš: qalāmtārāš

-pāz: sāmsapāz

-bāf: šājibāf

-mänd: äjālmänd

-bāz: mār bāz

-pürüş: čitpürüş

Shuningdek, e'tibor beradigan bo'lsak, shevalarda kasb-hunar leksikalaridan ayrimlari iboralar tarkibida birlashib ketgan. Ibora -1) frazeologik termin, 2) o'ziga xos uslubiy, dialektal va boshqa xususiyatiga eha bo'lgan so'z, so'z birikmasi va shu kabilarning umumiy nomi.⁴ Jumladan,

ipidān ijnāsīgāčā – batafsil, to'lig'icha;

ötkänniñ öräyini, ketkänniñ kätmänini qojmās – xarakteri yengil bolalarga nisbatan;

⁴ A. Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lig'ati. Toshkent. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 40b



böžčiniñ mākisidek qatnāmāq – chaqirsa, chaqirmasa, tez-tez kelmoq;

temirni qızıyıda bāsmāq – ishni o’z vaqtida bajarmoq;

tejirmānya tüssä, pitin čiқadigān – har qanday vaziyatdan eson-omon chiqmoq, qutilmoq kabi iboralar xalqimiz orasida iste’molda.

Xulosam shuki, o’zbek tili shevalarining kasb-hunar doirasida qo’llanilishi – bu tilning hayotiy kuchi, xalq bilan uyg’unligi va amaliy funksiyasining yaqqol ifodasidir. Har bir mintaqada o’z tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, muloqotda foydalaniladigan til birliklari nafaqat insonlar bilan qilinadigan oddiy munosabatni qulaylashtiradi, balki madaniy meros va tarixiy jarayonlarni, o’tmish ajdodlarimiz tilini bizgacha yetkazib kelishda muhim ahamiyatga ega. Ko’pchilik dialektologiyani o’rganish bizga nima beradi deb ikkilanib qolishadi. To’g’ri hozirda deyarli ko’p kishi shevalarda gapirmaydi. Bunga sabab ijtimoiy muhit. Ammo biz bilmaydigan chekka-chekka joylarda hozir ham to’liq faqat shevada gapiradigan insonlar topiladi. Shevani tadqiq etish va o’rganish bizda ham sun’iy intellektlarga mahalliy aholi tilini kirgizishga katta imkoniyat yaratishi bilan birga insoniyatning og’irini yengil qiladi. Agar sheva o’rganilmasa, adabiy tilda so’zlovchilar bilan shevada so’zlovchilar jamiyatda ikkiga ajralib qoladi garchi yurt, millat, til bir bo’lsa-da. Shuningdek, tilimizning o’lik tillar qatoriga kirishi tezlashadi, chunki tilning boyishiga zamin yaratadigan uch yo’lning biri ayan shevalardan so’z olish ekanligi barchamizga ma’lum. Demak, ushbu maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, o’zbek shevasini o’rganish, ayniqsa barcha soha doirasidagi ifodalanishini tahlil qilish tilimizning boyliklarini kashf qilishda muhim qadamlardan hisoblanadi. Bu esa o’z navbatida milliy tilning rivoji, saqlanishi va kelajak avlodlarga to’laqonli yetkazilishiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lig'ati. Toshkent. "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 40b
2. B.To'ychiboyev va B.Hasanov. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2004. 4b.
3. Fayziyeva Xadicha. O'zbek dialektologiyasi. Termiz. "Kitob nashr". 2024. 20b.
4. Nazar Rajabov. O'zbek shevashunosligi. Toshkent. "O'qituvchi" 1996.
5. <https://arxiv.dialect.uz>
6. <https://dialectcorpora.uz>